

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK INSTITUTI
UZOQ SHARQ VA JANUBIY OSIYO TILLARI FAKULTETI
JANUBIY OSIYO TILLARI KAFEDRASI

Asosiy o'rganilayotgan til

“HINDIY TILI”

Bakalavriaturaning
II kursi I - II semestrlari uchun
ma'ruza matni

kafedra majlisining
21.05.2008y. sanadagi
№_____sonli bayonnomasida
muhokama qilinib tasdiqlangan.

Soatlar hajmi - I – II semestr
Ma'ruza - _____
Amaliy mashg'ulot - _____

Tuzuvchi: kat.o'qit. Sodikova M. K
Taqrizchi: kat.o'qit. Rahmatov B.R.

TOSHKENT - 2008

KIRISH

O'qitishdan ko'zda tutilgan maqsad filolog-hindshunos va hindiy tili bo'yicha malakali o'qituvchilarni tayyorlashdir.

Ushbu ma'ruzalar matni to'rt yil davom etadigan o'qish jarayonining ikkinchi yili uchun mo'ljallangan, o'quv ioklamasining umumiy hajmi 444 soat bo'lib, shundan 154 soat - ma'ruza, 290 soat - amaliy mashg'ulotdir.

Talaba 2-kurs yakunida 2200-2500 so'z va iboralardan iborat lug'at boyligiga ega bo'lishi kerak. Bundan 1200-1250 tasi joriy o'quv yilida o'zlashtiriladi.

Talabalar bilimlarini nazorat qilish shakli uch hil yo'l bilan tashkil etiladi: joriy baholash - o'tilayotgan darslarni talabalar tomonidan qay darajada o'zlashtirayotganini og'zaki, yozma muntazam ravishda nazorat qilish; oraliq baholash - mazkur fan bo'yicha o'tilgan bir necha mavzularni o'z ichiga olgan bo'lim bo'yicha talabaning bilimini aniqlash, bu yozma ravishda, test, tayanch iboralar asosida yozma ish o'tkazish; yakuniy baholash - fan bo'yicha semestr ohirida o'tilgan barcha mavzular bo'yicha yozma (jumlalarini tarjima qilish, matnni tarjima qilish, lug'atlarni yozma topshirish), og'zaki (o'tilgan matnlarni gapirib berish - og'zaki va yozma) va test shaklida o'tkaziladi.

1- MA'RUZA

NISBAT

Ma'ruza rejasi:

1. Nisbat turlari.
2. Majhul nisbatning yasalishi.
3. Sub'ektning ort ko'makchilar bilan kelishi.
4. Infinitiv, potentsial, kompletiv fe'llarning majhul nisbatda ishlatilishi.

Tayanch iboralar:

Majhul nisbat, o'timli fe'l, sub'ekt, ort ko'makchilar

Hindiy tilida 2 ta nisbat bor:

1. Aniqlik.
2. Majhul

Aniqlik nisbatida ham o'timsiz ham o'timli fe'llar kelishi mumkin.

Majhul nisbat asosan o'timli fe'ldan yasaladi.

Agar aniqlik nisbati fe'lda ish-harakat bilan uning bajaruvchisi orasidagi munosabatni ifodalasa, majhul nisbatdagi fe'llar ish-harakat bajaruvchisini aniq bildirmaydi.

O'zbek tilida fe'l nisbati 5 ga bo'linadi.

1. Aniqlik nisbat: 1. Biz bu shaharda yashaymiz. 2. Ertaga ular teatrga borishadi.

2. O'zlik nisbati: 1. Ma'suda kiyindi. (fe'lning o'zak negiziga -n, -i, -in, -il qo'shimchasi qo'shiladi.)

3. Majhul nisbat : -n, -l, -in, -il qo'shimchalari bilan yasaladi. 1. Majlisga tayyorgarlik boshlandi. 2. Bu erda kitoblar sotiladi.

4. Birgalik nisbat : (-sh, -ish) 1. Bolalar jurnal o'qishmoqda.

5. Orttirma nisbat : -g, -tir, -dir, -ir, -ar, -iz, -giz, -qiz, g'iz, qiz. M-n: ishlat, o'qit, edir, buzdir, o'qtir, aytir, o'tqiz, iorgiz va h.k.z. qo'shimchalari bilan yasaladi.

Hindiy tilida

majhul nisbat

Majhul nisbat analitik usul bilan ya'ni asosiy fe'lning sodda tugal sifatdoshi va «jana» fe'li birikmasidan yasaladi:

M-n:

parhna - o'qimoq	parha jana - o'qilmoq
likhna - yozmoq	likha jana - yozilmoq
banana - qurmoq	banaya jana - qurilmoq

Sodda tugal sifatdosh jins va sonda o'zgaradi, «jana» fe'li shahs, zamon, maylni ko'rsatadi. M-n:
 lekh likha jata he - maqola yoziladi
 do hotal banaye gaye - ikkita mehmonhona qurildi

Majhul nisbat asosan ish-harakat bajaruvchisi aniq bo'lmaganda, ko'rsatilmaganda ishlatiladi. M-n:
 Bachche khilaye gaye he - Bolalar ovqatlantirildi

Agar ish-harakat bajaruvchisi ma'lum bo'lsa, u holda u «se» yoki «dvara» ko'makchilari bilan vositali kelishikda kelib, gapda vositali to'ldiruvchi vazifasini bajaradi. Ish-harakat ob'ekti esa ega vazifasida keladi va u bilan kesim moslashadi. M-n:

Ye patr mujh se bheja gaya tha.

Bu hat men tomonimdan roborilgan edi.

Biroq ish-harakat bajaruvchisi ma'lum bo'lsa, aniqlik nisbatini ishlatgan ma'qul.

Ye ghar mazdur bana rahe he.

Bu uyni ishchilar qurishyapti.

Uga ya'ni ish-harakat ob'ekti odatda vostiasiz kelishikda keladi. Ba'zan u «ko» ko'makchisi bilan kelishi mumkin, bu holda kesim holis shaklda ya'ni muzakkar jinsi, birlikda keladi.

Rabar ko pehle achchhi tarah saf kiya jata he.

Kauchuk avval yahshilab tozalanadi.

Majhul nisbat hamma zamon shakllari va buyruq maylidan tashqari hamma mayllarda ishlatiladi.

«Lana, bolna, le jana» o'timsiz fe'llaridan majhul nisbat shaklini yasash mumkin.

Intensiv, kompletiv, potentsial fe'llarning majhul nisbati quyidagicha yasaladi: Intensiv fe'lining sodda tugal sifatdoshiga «jana» yordamchi fe'lini qo'shish bilan yasaladi.

Nikal dena - haydab chiqarmoq

Nikal diya jana - chiqarib roborilmoq

Potentsial va kompletiv fe'llarning majhul nisbati asosiy fe'lining sodda tugaviy sifatdoshi, «jana» fe'lining o'zagi va «sakna» yoki «chukna» fe'lini qo'shish bilan yasaladi:

parhna - parha ja sakna - o'qiy olinmoq

parhna - parha ja chukna - o'qib bo'linmoq.

Potentsial fe'lining majhul nisbati «nahi» roklamasi bilan kelganda «biror bir ish-harakatni qilish, nimadir qilish mumkin emasligini» ifodalaydi.

Use koyi davai nahi di ja sakti

Unga hech qanday dori berish mumkin emas

Savollar:

1. Fe'lining majhul nisbati qanday yasaladi?
2. Infinitiv, kompletiv, potentsial fe'llarning majhul nisbati qanday yasaladi?
3. Nima uchun majhul nisbatdagi kesim ega bilan moslashmaydi?

Adabiyotlar:

1. Aulova R. A. «Uchebnik yazika hindi», qo'lyozma II - qism
2. Dimshits Z. M. i. d. r. «Uchebnik yazika hindi» I - qism, M, 1980 y.

2- MA'RUZA

RAVISH

Ma'ruza rejası:

1. Tub ravishlar.
2. Yasama ravishlar.
3. Ravish turlari.

Tayanch iboralar:

Tub ravish, yasama ravish, o'rin ravisha, payt ravishi, sabab ravishi, holat ravishlari, daraja-miqdor ravishlari.

Ish-harakat, holatning belgisini bildirgan so'zlar turkumi ravish deyiladi.

Ravish shakliga ko'ra tub va yasama bo'ladi, ma'nosiga ko'ra holat va aniqlovchi ravishlarga bo'linadi.

Tub ravishlar

Tub ravishlar quyidagicha yasaladi:

1) Sodda olmoshlagan ravishlardan (bular ko'rsatish olmoshlaridan kelib chiqishiga qaramay, mustaqil deb qabul qilingan): Masalan:

yahan - bu erda	kahan - qaerda, qaerda
vahan - u erda	jahan - qaerda, qaerda
idhar - bu erga, u erga	udhar - u erga, u erda

2) Sanskrit va fors tillaridan o'zlashtirilgan ravishlar.

Sada - doimo	hamesha - hamisha
prayah - odatda	ahista - sekin
punah - yana	dur - uzoq

Yasama ravishlar

Yasama ravishlar boshqa so'z turkumidan: ot, sifat, son, fe'l va hokazolardan yasaladi.

a) Otlardan ravishlar ularga ko'makchi qo'shish yoki ularni takrorlash bilan yasaladi:

krodh - g'azab	krodh se - g'azab bilan
rat - tun	rat ko - tunda
akhir - ohir	akhir me - ohirida
din - kun	din-din - har kuni
ghar - uy	ghar - ghar - uy-uyiga

b) O'zgaruvchan sifatlardan ravishlar a → e ga, an → en o'zgartirish bilan yasaladi.

dhima - jim, sokin	dhime - sokin, jim
bayan - chap	bayen - chapga

v) Ba'zi o'zgaruvchan sifatlar ravishga aylanganda o'zgarmay qoladi: M-n:

achchha yahshi	achchha yahshi
----------------	----------------

Vo larka achchha larka he - U yahshi bola

Vo achchha bolta he - U yahshi gapiradi.

g) O'zgarmas sifatlardan ravish yasalganda u hech qanday o'zgarishsiz qoladi. Matn mazmunidan vazifasi aniqlanadi.

Vo larki udas beythi he - U qiz g'amgin o'tiribdi.

d) Ravish vazifasida ba'zi fe'llardan yasalgan ravishdosh ham kelishi mumkin.

milna dan	milkar - birga, birgalikda
chhorna dan	chhorkar - tashqari, boshqa

e) Ba'zi sanoq va tartib sonlardan ham ravishlar yasaladi, a → e ga o'zgaradi.

Pehla pehle - avval
dusra dusre - ikkinchidan
tisra tisre - uchinchidan
panchva panchven - beshinchidan

«Birinchidan» ravishi «ek» ga «to» ioklamasini qo'shish bilan yasaladi. «ekto»
yo) Ravishlar yana turli hil old va orqa qo'shimchalar qo'shish yordamida yasaladi:

- purvak dhyanpurvak - diqqat bilan
 shantipurvak - tinchgina
 krodhpurvak - g'azab bilan

- tah prathamtah - avval, birinchidan
 visheshtah - ayniqsa
 purntah - to'liq

- vat rajvat - shohona
 murtivat - haykalsimon

- prati pratidin - har kuni

Holat ravishlari

1) O'rin ravishi : «kaha», «kidhar» so'rog'iga javob bo'ladi ; Ish-harakatni bajarilish o'rnini yoki yo'nalishini ko'rsatadi. «yahan, vahan, jahan, kahi, idhar, udhar, niche, upar, samne, nazdik, bahr, age va h.k.z.»

2) Payt ravishi «kab» so'rog'iga javob beradi ; ish-harakatning bajarilish paytini ko'rsatadi. «aj, kal, parso, hamesha, har roz, pratidin, kabhi - kabhi, sada»

3) Sabab ravishi «kis liye?» so'rog'iga javob beradi M-n: «is liye, kyo, atah, atev» ish-harakatning bajarish sababini ko'rsatadi.

Aniglovchi ravishlar

1) Holat ravishlari «ka^yse» so'rog'iga javob bo'ladi: ish-harakatni qay tarzda, qanday bajarilishini ko'rsatadi: «sehsa, achanak, dhire, pa^ydal, dhyanpurvak, jaldi, zor se, ahista»

2) Daraja-miqdor ravishlari: «kitna» so'rog'iga javob beradi. Ish-harakatning sifati, daraja-miqdori bildiradi. «bahut, atyant, zyada, adhik, kuchh, kam, khub, lagbhag, zara, utna, itna, jitna»

Savollar:

1. Ravish nechta turga bo'linadi?
2. Tub ravishlar deb qanday ravishlarga aytiladi?
3. Yasama ravishlar qanday so'z turkumlaridan qay tarzda yasaladi?

Adabiyotlar:

1. Aulova R. A. «Uchebnik yazika hindi», qo'lyozma II - qism
2. Dimshits Z. M. idr. «Uchebnik yazika hindi» I - qism, M, 1980.

3 - MA'RUZA ISTAK MAYLI

Ma'ruza rejasi:

1. Istak mayli shakllari.
2. Istak maylining sodda shaklini yasalishi.
3. Istak maylining sodda shaklini ishlatilishi.
4. Istak maylining sodda shaklining majhul nisbati.

Tayanch iboralar:

Istak mayli(sodda shakli), shahsiy qo'shimchalar, «hona» fe'lining istak mayli shakli.

Fe'lda so'zlovchining ish-harakatga munosabatining ifodalanishi fe'l mayli deyiladi. Fe'l mayllari ish-harakat haqida habar, buyruq, istak, shart ma'nolarini anglatadi.

	Birlik	Ko'plik
I.	o'qiyin yozayin	o'qiylik yozaylik
II.	o'qigin yozgin	o'qingiz yozingiz
III.	o'qisin yozsin	o'qisinlar yozsinlar

Hindiy tilida 5 ta mayl bor.

- 1) Xabar
- 2) Buyruq
- 3) Istak
- 4) SHart
- 5) Gumon (tahmin)

Xabar maylidagi fe'llar ish-harakatning uch zamonning (o'tgan, hozirgi, kelasi) birida bajarilishi - bajarilmasligini bildiradi. «parhta he, parhta tha, parha he, parha tha» va h.k.

Buyruq mayli, buyruq, iltimos, II shahsga murojaat kabilarni ifodalaydi. «likh, likho, likhiye, likhna»

Istak maylining sodda shakli.

Istak mayli hali bajarilmagan, ammo bajarilishi ehtimol, mumkin bo'lgan ish-harakatni bildiradi. Uning 4 ta shakli bor :

- 1) Sodda
- 2) Murakkab tugallangan
- 3) Murakkab tugallanmagan
- 4) Protsessiv

Istak maylining sodda shakli fe'l o'zagiga shahsiy qo'shimchalarni qo'shish bilan yasaladi.

I. - u	I. en
II. - e	II. o en
III.- e	III. en

**«Parhna, lena, dena, hona»
fe'llarining istak mayli
shakli**

Birlik

- I. mae parhu, lu, du, hou (hu)
- II. tu parhe, le, de, ho
- III. ye, vo parhe, le, de, ho

Ko'plik

- I. ham parhen, len, den, ho
- II. tum parho, lo, do, ho
ap parhen, len, den, ho
- III. ye, ve parhen, len, den, ho

Fe'l o'zagi unli bilan tugasa o'zak va qo'shimcha o'rtasida «y» va «v» yozilishi mumkin (1- shahs birlik, 2 - shahs ko'plikdan tashqari)

- I. mae jau
- II. tu jaye, jave, jae

- III. ye, vo jaye, jave,
jaye

- I. ham jayen, jaen, javen

- II. tum jao ap jayen,
jaen, javen

- III. ye, ve jayen, jaen,
javen

Agar fe'l o'zagi cho'ziq «i,u» bilan tugasa «u,e» qo'shimchalaridan avval qisqa i va u ga aylanadi:
pina - pi - piu, pie, ammo pive
chhuna - chhu - chhuu, chhue ammo chhuve
Istak maylining sodda shakli quyidagilarni ifodalaydi:

1) Istak va hohishni: «Apki yatra shubh
rahe» - Safaringiz behatar bo'lsin (Oq yo'l) «Jao, ishvar tumhari raksha kare» «Olloh seni
panohida saqlasin».

2) Samimiy iltimosni:

a) Man, meri chinta na kare - usne uttar diya
Ona mendan havotir olmasangiz - U javob berdi.

b) Ap unhe is nambar par avashya fon kare
Siz ularga bu nomer bo'yicha albatta telefon qilsangiz.

3) O'zaro ish-harakatga undash, chaqirishni ifodalaydi; Bu 1- shahsga yoki shahslarga tegishli bo'lishi mumkin.

Ish-harakat 1- shahs ko'plikka yoki birlikka tegishli bo'lishi mumkin. So'zlashuvchi shahs ham ish-harakatni boshlanishida ishtirok etadi. Bunday gaplarning boshida «tum» va «ap» olmoshlari uchun «ana, chalna» fe'llaridan yasalgan buyruq mayli shaklida qo'yiladi.

Chaliye khana kha len

Uringlar ovqatlanaylik

Ao, ham bhartiya git gayen.

Kelinglar hindcha qo'shiq kuylaylik.

Chalo, koi a'r juta kharid lun.

Uoring, birorta poyafzal sotib olayin.

4) Kim tomonidandir undashni, ish-harakat 3 - shahsga tegishlilikni bildiradi.

Us se kaho ki vo apna kam pura kar de

Unga ayt, u o'z ishini bajarsin

5) Keraklikni, lozimlikni bildiradi.

Chahiye ki tum jaldi se daktr ko bulao

Siz vrachni chaqirishingiz lozim.

6) Yana anglashilmovchilik, o'zini yo'qotish kabilarni ifodalaydi.

Uski samajh me na aya ki vo kya kahe

U nima deb aytishni bilmadi

7) Ish-harakatga nisbatan samimiy so'roqni yoki biror ish-harakat uchun samimiy iltimosni ifodalaydi.

Me ek bat puchhu? - So'rasam maylimi?

8) Kelajakka taalluqli bo'lgan biror ish-harakatga nisbatan tahminni ko'rsatadi. Tahminni ifodalovchi gap tarkibida «shayad, kadachit» - «ehtimol», «bo'lishi mumkin», «balki», kabi modal so'zlar bo'lishi mumkin.

SHayad ap ke kam me vo ap ki sahayata kar saken. Ehtimol u sizning ishingizda yordam berar.

9) Xavotirlanishni ifodalaydi.

Bu holda «kahi» ravishi «na» bo'lishsizlik roklamasi bilan ishlatiladi.

Kahi vo na aye - U kelib qolmasaydi.

10) Bo'lishsizlik shakli «na» orqali yasaladi:

Ap iski chinta na kare - Siz bundan havotirlanmang.

Istak maylining sodda shaklining majhul nisbati

Bu analitik usul bilan: asosiy fe'ning sodda tugal shakli va «jana» fe'lining istak maylidagi sodda shaklini qo'shish bilan yasaladi. Sifatdosh jins va sonda o'zgaradi, yordamchi fe'l mayl va sonni ko'rsatadi.

Usne kaha ki ye kam kiya jaye

U aytdiki, bu ish qilinsin.

Kesim vositasiz to'ldiruvchi bilan moslashadi, agar u bo'lmasa yoki «ko» bilan kelsa kesim neytral shaklda keladi.

Is chithi ko bheja jaye.

Bu maktub roborilsin.

Savollar:

1. Hindiy tilida nechta mayl bor?
2. Istak maylining sodda shakli qanday yasaladi?
3. Istak maylining sodda shakli qanday ma'nolarni bildiradi?
4. Istak mayli sodda shaklining majhul nisbati qanday yasaladi?

Adabiyotlar:

1. Aulova R.A. «Uchebnik yazika hindi», qo'lyozma II-qism.
2. Dimshits Z.M. «Uchebnik yazika hindi» II- qism, M, 1980.
3. Liperovskiy V.N. «Kategoriya nakloneniya v sovremennom literaturnom hindi» M. 1964.

4 - MA'RUZA

TO'LDIRUVCHI ERGASH GAPLAR

Ma'ruza rejasi:

1. To'ldiruvchi ergash gaplarning yasalishi.
2. To'ldiruvchi ergash gaplarning o'rni.

Tayanch iboralar:

«Ki» bog'lovchisi, «taki» bog'lovchisi, bosh gap, ergash gap

To'ldiruvchi ergash gap bosh gapning kesimini to'ldirib keladi.
To'ldiruvchi ergash gap boshga «ki» bog'lovchisi - (ki) bilan bog'lanadi.
Odatda bosh gapdan keyin to'ldiruvchi ergash gap keladi, ba'zan aksincha ham bo'ladi:

Vo janta he ki ham kal ayenge

U biz ertaga kelishimizni biladi.

(U biladiki, biz ertaga kelamiz).

Me ne ap se kai bar kaha he ki mae is ghar me nahi rahungi

Men sizga bu uyda yashamayman deb bir necha marta aytdim.

Ko'pincha bosh gapning kesimi quyidagi fe'llar bilan ifodalanadi:

«Kehna», «sochna», «batana», «samajhna», «janna», «chahna», «dekhna», «prarthna karna», «asha dena», «koshish karna», «vichar karna» va hokazo.

Savollar:

1. To'ldiruvchi ergash gap bosh gapga qaysi bog'lovchilar yordamida bog'lanadi?
2. To'ldiruvchi ergash gap qanday ish harakatni bildiradi?

Adabiyotlar:

1. Aulova R. A. «Uchebnik yazika hindi», qo'lyozma II - qism
2. Dimshits Z. M. idr. «Uchebnik yazika hindi» I - qism, M, 1980 y.
3. Dimshits Z. M. idr. «Uchebnik yazika hindi» II - qism, M, 1980 y.

5 - MA'RUZA**MAQSAD ERGASH GAPLAR****Ma'ruza rejasi:**

1. Maqsad ergash gaplarning bosh gapga «taki», «ki» bog'lovchilari bilan bog'lanishi.
2. Maqsad ergash gaplarning o'rni.

Tayanch iboralar:

Maqsad ergash gap, ergash gap, bosh gap. istak maylining sodda shakli

Maqsad ergash gaplar bosh gapning ish-harakati qanday maqsadda bajarilishini ko'rsatib «kis liye? kis uddeshya se?» so'rog'iga javob bo'ladi.

Maqsad ergash gaplar bosh gapga «taki» «ki», (toki, uchun, -ki) bog'lovchilari bilan bog'lanadi.

Ergash gapning kesimi istak maylining sodda shakli bilan ifodalanadi :

Maqsad ergash gap bosh gapdan so'ng keladi.

Me abhi usko fon karunga ki vo mera pratiksha na kare

b) Ham bhart jaenge taki hindi ka adhyayan kare

Men hozir unga meni kutmasin deb telefon qilaman.

v) Ham sinemaghar gaye ki nayi film dekhe.

Biz yangi film ko'rish uchun kinoteatrga bordik.

g) Ma chahti thi ki me daktr banu.

Oyim meni doktor bo'lishimni hohlar edilar.

Savollar:

1. Maqsad ergash gap bosh gapga qaysi bog'lovchilar yordamida bog'lanadi?
2. Maqsad ergash gap qanday harakatni bildiradi?

Adabiyotlar:

1. Aulova R. A. «Uchebnik yazika hindi», qo'lyozma II - qism
2. Dimshits Z. M. idr. «Uchebnik yazika hindi» I - qism, M, 1980 y.
3. Dimshits Z. M. idr. «Uchebnik yazika hindi» II - qism, M, 1980 y.

6 - MA'RUZA

INFINITIV

Ma'ruza rejasi:

1. Infinitivning fe'llik hususiyati.
2. Infinitivning otlik hususiyati.
3. Infinitivning sintaktik vazifalari.

Tayanch iboralar:

Infinitiv, infinitivning fe'llik hususiyati, infinitivning otlik hususiyati, sintaktik funktsiyalar.

Infinitiv fe'lning noaniq shakli bo'lib, «na» bilan tugaydi. Infinitiv zamon, mayl, son, shahsni ko'rsatmagan holda ish-harakat yoki holatni bildiradi.

Infinitiv fe'llik va otlik hususiyatiga ega.

Infinitivning fe'llik hususiyatlari

Infinitiv fe'l kabi:

- a) vositasiz to'ldiruvchiga ega.
Pustak parhna
- b) O'z to'ldiruvchisini ko'makchilar bilan boshqaradi:
Dukan se haridna
- v) Ravish bilan aniqlanadi :
Vapas la^otna
- g) Aniqlik va majhul nisbat shakllariga ega.
parhna — parha jana
likhna — likha jana

Infinitivning otlik hususiyati

Infinitiv ot kabi:

- a) Abstrakt ma'nodagi ish-harakatni ifodalaydi.
parhna - o'qish
likhna - yozish
- b) Ot kabi jinsga (muzakkar ba'zan muannas) ega:

parhna m. - o'qish

ana m. - kelish (ba'zan ko'plik)

v) Son: birlikka ega (ba'zan ko'plik)

mera ana - mening kelishim

g) Kelishik: vositasiz kelishikda «na» va vositali (faqat birlikda) kelishikda «ne» bilan tugaydi. M-n:

ana - kelish

ane tak - kelguncha

d) Ot kabi har qanday ko'makchi bilan keladi.

likhne ki mez yozuv stoli

ane se pehle kelishdan avval

ba'thne ke liye o'tirish uchun

Infinitivning sintaktik

funktsiyalari

Infinitiv gapda bosh va ikkinchi darajali bo'laklar vazifasini bajaradi.

1) Ɖga.

Jina kathin ho gaya - Yashash qiyin bo'lib qoldi.

2) Ot-kesimning ot qismi vazifasini:

Vidyarthiyon ka kam sirf parhna he

Studentlarning burchi faqat o'qishdir.

3) To'ldiruvchi:

Meri ma likhna nahi janti thi.

Onam yozishni bilmas edilar.

4) Aniqlovchi:

Me tumhe ghar bechne ki salah nahi dunga

Men senga uyni sotishga maslahat bermayman.

5) Aniqlanmish:

Uska bhashan dena mujhe achchha nahi laga.

Uning nutq so'zlashi menga yoqmadi.

Savollar:

1. Infinitivning fe'llik hususiyatlari nimalardan iborat?
2. Infinitivning otlik hususiyatlari nimalardan iborat?
3. Infinitivning sintaktik funktsiyalari nimalardan iborat?

Adabiyot:

1. Aulova R. A. «Uchebnik yazika hindi», qo'lyozma II - qism
2. Dimshits Z. M. idr. «Uchebnik yazika hindi» II - qism, M, 1980 y.
3. Jmotova O. D. Glagol'nie cherti infinitiva hindi, urdu. Sb. «Voprosi grammatiki yazika hindi»

M. 1962

7- MA'RUZA

SHARTLI BIRIKMALAR

Ma'ruza rejasi:

1. SHartli birikmalarning yasalishi.
2. SHartli birikmali jumalarda ish-harakat bajaruvchining «ko» ko'makchili ot, olmosh yoki olmoshlarning ob'ekli kelishiklari bilan ifodalanishi.
3. Kesimning vositasiz to'ldiruvchi bilan moslashishi.

Tayanch iboralar:**Shartli birikmalar, vositasiz to'ldiruvchi, ish-harakat bajaruvchisi.**

SHartli birikmalar infinitiv + «hona», «parna» fe'llari va «chahiye» ravishlaridan yasaladi. «Hona» va «parna» fe'llari o'zlarining ma'nolarini yo'qotadilar: ular faqat yordamchi fe'l bo'lib keladi.

«Hona» ish-harakatni bajarish kerakligini bildirsa, «parna» ish-harakatni bajarish shart, majburligini ifodalaydi. «Chahiye» ish-harakatni bajarish lozimlikni ko'rsatadi.

SHartli birikmalarda ish-harakat bajaruvchi vositali kelishikdagi ot yoki olmoshlarning ob'ekli kelishigi bilan ifodalanadi.

Vidyarthi ko jana he - Student borishi kerak

SHartli birikmalarda infinitiv vositasiz to'ldiruvchi bilan jins, sonda moslashishi mumkin:

a) Mujhe pita ji se salah karni he. Otam bilan maslahatlashishim kerak.

Agar vositasiz to'ldiruvchi bo'lmasa yoki «ko» ko'makchisi bilan kelsa kesim neytral holatda keladi.

Mujhe Kalkatta jana tha. - Men Kalkuttaga borishim kerak edi.

Savollar:

1. SHartli birikmalar qanday usul bilan yasaladi?
2. SHartli birikmalarda ish-harakat bajaruvchisi qanday ifodalanadi?
3. SHartli birikmalar qaysi mayllarda ishlatiladi?
4. SHartli birikmalar qaysi zamonlarda ishlatiladi?

Adabiyotlar:

1. Aulova R. A. «Uchebnik yazika hindi», qo'lyozma II - qism
2. Dimshits Z. M. idr. «Uchebnik yazika hindi» II - qism, M, 1980 y.
3. Jmotova O. D. Glagol'nie cherti infinitiva hindi, urdu. Sb. «Voprosi grammatiki yazika hindi» M. 1962

8 - MA'RUZA**SHARTLI BIRIKMALAR****Ma'ruza rejasi:**

1. «Hona» fe'lining moslashuvi.
2. «Parna» fe'lining hamma zamon va mayllarda ishlatilishi.
3. «Chahiye» ravishining hozirgi va o'tgan zamonlarda ishlatilishi.

Tayanch iboralar:

«parna» fe'li, «hona», «chahiye» ravishi.

«Hona» fe'li yoki vositasiz to'ldiruvchi bilan jins va sonda moslashadi, yoki u bo'lmasa, zamon va maylni ko'rsatgan holda neytral shaklda keladi.

1. Mujhe us se zaruri baten karni he.
Men u bilan zarur gaplarni gaplashishim kerak.
2. Use ye kam karna tha.
U bu ishni qilishi kerak edi.
3. Bhai ko apni kar beychni thi.
Akam mashinasini sotishi kerak edi.

«Parna» fe'li hamma zamon va mayllarda o'zgaradi.

1. Ab kuchh sochna parta he.
Endi bir oz o'ylashga to'g'ri keladi.
2. Use apna tikat laotana para.
U biletini qaytarishga majbur bo'ldi.
3. Kal hamen kalej jana parega.
O'rta bizga kollejga borishimizga to'g'ri keladi.

«Chahiye» ravishi hozirgi va o'tgan zamonlarda uchraydi.

1. Tum ko vaha jakar rehna chahiye.
Sen u erga borib yashashing kerak.
2. SHayid uski patni ko apna ghar beychna pare.
Ohtimol uning hotini uyini sotishga majbur bo'rgandir.

«Chahiye» birlik va ko'plik shakllariga ega. Uning ko'plik shakli faqat hozirgi zamonda ishlatiladi.

1. Tumko vaha jana chahiye.
Sen u erga borishing lozim.
2. Har itvar ko a^yse femili diner to hone hi chahiye
Har yakshanba kuni bunday oilaviy tushliklarni ham tashkil qilish lozim.

«Chahiye» o'tgan zamonda ham ishlatiladi.

1. Mujhe apne pita ji se aana chahiye tha.
Men otam bilan kelishim kerak edi.
2. Kal hame stediya me ikattha hona chahie tha.
Kecha biz stadiona yig'ilishimiz kerak edi.

Savollar:

1. SHartli birikmalarda kesim nima bilan moslashadi?
2. «Parna» fe'li bilan yasalgan birikmalar qaysi zamon va mayllarda ishlatiladi?
3. «Chahiye» ravishli shartli birikmalar kelasi zamonda ham ishlatiladimi?

Adabiyotlar:

1. Aulova R. A. «Uchebnik yazika hindi», qo'lyozma II - qism
2. Dimshits Z. M. idr. «Uchebnik yazika hindi» II - qism, M, 1980 y.
3. Jmotova O. D. Glagol'nie cherti infinitiva hindi, urdu. Sb. «Voprosi grammatiki yazika hindi»

M. 1962

9 - MA'RUZA

SO'Z YASOVCHI «VALA» MORFEMASI

Ma'ruza rejasi:

1. «Vala» morfemasining fe'l, ot, ravish, olmosh, sifatlarga qo'shilib yangi so'zlar yasashi.
2. «Vala» morfemasining otga qo'shilib yangi so'zlar yasalishi.
3. «Vala» morfemasining fe'lga qo'shilib yangi so'zlar yasalishi.

Tayanch iboralar:

«Vala» morfemasi, ot, fe'l, ravish

Hindiy tilida turli hil morfemalar yordamida yangi so'zlar yasash keng tarqalgan. SHulardan biri «vala» morfemasidir. U turli hil so'z turkumlariga qo'shilib yangi so'z yasaydi. Ko'proq fe'l va otga ba'zan ravish, olmosh sifatga ham qo'shilib yangi so'zlar yasaydi.

«Vala» morfemasi «a» dan tashqari har qanday undosh va unli tovush bilan tugagan so'zga bevosita qo'yiladi.

gharvala nagarvala

rotivala maskovala

«a» bilan tugagan so'z «vala»dan avval «e»ga o'zgaradi.

bachcha bachchevala

likhna likhnevala

Otlar ko'plikda har qanday undosh bilan tugaydigan bo'lsa, «on» qo'shimchasini oladi, «e» bilan tugasa ham «on» qo'shimchasini oladi.

kale bal kale balonvala

do kamre do kamronvala

«Vala» rod, son, kelishikda o'zgaradi.

Kale balonvala larka

Kale balonvale larke

«Vala» bitta so'zga yoki so'zlarga tegishli bo'lishi mumkin

SHehrvala

Kag'az, pensil, qalam bechnevali dukan

«Vala» morfemasi otlarga qo'shilib, quyidagi ma'nolarni anglatuvchi yangi so'z yasaydi:

a) Geografik joylarni bildiruvchi so'zlarni yasaydi.

nagarvala - nagar

ganvvala - gav

b) Biror bir kasb egasini, biror partiya yoki guruhga tegishlilikni anglatuvchi so'zlarni yasaydi va hokazo.

roti rotivala - nonvoy

pulis pulisvala - politsiyachi

v) Biror bir narsaning egasi, sohibini bildiruvchi so'z yasaydi:

ghar gharvala - uy egasi

kar karvala - avtomobil egasi

g) Sotuvchini anglatuvchi so'z yasaydi:

phal phalvala - ho'l meva sotuvchi

dudh dudhvala - sut sotuvchi

«Vala» otga qo'shilib, nafaqat yangi ot, balki sifat ham yasaydi:

samne samnevala - ro'paradagi

bahr bahrvala - tashqi

«Vala» fe'lga qo'shilib quyidagilarni yasaydi

a) fe'llashgan otlarni: (fe'ldan yasalgan otlarni)

dekhna dekhnevala - tomoshabin

parhna parhnevala - kitobhon

b) Tugal va notugal sifatdoshni:

ba^ythnevala - o'tirayotgan, o'tirgan

anevala - keladigan, kelgan

g) Majhul nisbatdagi infinitivga qo'shilib, passiv ma'nodagi sifatdoshlarni yasaydi:

kiya janevala - qilingan, qilinadigan

diya janevala - berilgan, beriladigan

Savollar:

1. «vala» morfemasi qaysi so'z turkumlariga qo'shilib yangi so'z yasaydi?

2. «vala» morfemasidan yasalgan so'zlar (ot, sifat, sifatdosh) gapda qanday sintaktik vazifani bajaradi?

Adabiyotlar:

1. Aulova R. A. «Uchebnik yazika hindi», qo'lyozma II - qism

2. Dimshits Z. M. idr. «Uchebnik yazika hindi» I - qism, M, 1980 y.

3. Dimshits Z. M. idr. «Uchebnik yazika hindi» II - qism, M, 1980 y.

10 - MA'RUZA

«VALA» MORFEMASI YORDAMIDA

YASALGAN SO'ZLARNING SINTAKTIK FUNKSIYALARI

Ma'ruza rejasi:

1. Fe'ldan yasalgan so'zlarning gapdagi funktsiyalari.

2. Infinitiv + «vala» dan yasalgan sifatdoshning gapdagi vazifalari.

3. Ot yoki ravishdan yasalgan sifatlarning vazifalari.

4. Otdan yasalgan yangi otlarning vazifalari.

Tayanch iboralar:

«Vala» so'zlarining sintatik funktsiyalari, ega, kesim, aniqlovchi, to'ldiruvchi.

Fe'ldan yasalgan so'zlar gapda quyidagi vazifalarni bajaradi:

a) Ega:

Subah ko jahaz nasht karnevale ayenge

Ǝrtalab kemani buzuvchilar kelishadi.

b) To'ldiruvchi:

1) Bechnevale ko ye rupye do — Sotuvchiga bu pullarni berdi.

v) Ot-kesimning ot qismi vazifasida:

1) Ham Tashqand ke rehnevale he — Biz Toshkentning yashovchilarimiz.

Infinitiv + «vala»dan yasalgan sifatdosh gapda quyidagi vazifalarni bajaradi:

a) Aniqlovchi

1) Bhashn denevali a^orat meri ma he—Nutq so'zlayotgan ayol mening onam.

b) Qo'shma kesimimning ot qismi vazifasida:

1) Dusra larka kuchh kehnevala tha ki Bhagvandas nikal gaya — Ikkinchi bola bir nima demoqchi edi-ki Bhagvandas chiqib qoldi.

Sifatdosh bu vazifada kelganda maqsad sifatdoshi deb ham ataladi.

Ot yoki ravishdoshdan yasalgan sifat quyidagi vazifalarni bajaradi:

a) Aniqlovchi:

1) Abhi tak teri bachchovali adate nahi gayi — SHu paytgacha seni ng bolalik odatlaring ketmadimi?

b) Qo'shma kesimning ot qismi vazifasida

Dono safed darhivale the — Ikkovi oppoq soqollik edi.

Ot + «vala» dan yasalgan yangi otlar gapda har qanday bo'lak vazifasini bajaradi:

1) Teksivale ne hame bulaya — Taksist bizlarni chaqirdi.

Savollar:

1. «Vala» morfemasi qo'shilgan fe'ldan yasalgan so'zlar gapda qanday funktsiyalarni bajaradi?

Adabiyotlar:

1. Aulova R. A. «Uchebnik yazika hindi», qo'lyozma II - qism

2. Dimshits Z. M. idr. «Uchebnik yazika hindi» I - qism, M, 1980 y.

3. Dimshits Z. M. idr. «Uchebnik yazika hindi» II - qism, M, 1980 y.

11- MA'RUZA SIFATDOSH

Ma'ruza rejasi:

1. Sifatdosh fe'llik va sifatlik belgilariga ega bo'lgan shakl.

2. Sifatdosh turlari.

3. Oddiy sifatdosh turlari.

4. Murakkab sifatdosh turlari.

Tayanch iborat:

Sifatdosh, sodda sifatdosh, murakkab sifatdosh, o'o'tgan zamon sifatdoshi, sodda notugal sifatdosh, sodda tugal sifatdosh.

O'zbek tilida predmetning belgisi bo'lgan ish-harakatni anglatadigan fe'l shakli sifatdosh deyiladi.

Sifatdosh vazifasi jihatdan sifatga yaqin bo'lgan fe'l shaklidir.

Sifatdosh fe'llik va sifatlik belgilariga ega bo'ladi: fe'l singari ish-harakatni anglatib, o'tgan zamon, hozirgi zamon va kelasi zamonda qo'llaniladi, nisbatni, bo'lishli-bo'lishsizlikni bildiradi; sifat kabi otga bog'lanib, uning belgisini bildiradi, gapda aniqlovchi bo'lib keladi:

M-n: O'quvchilar to'kilgan pahtalarni terdilar. - To'kilgan - fe'l kabi ish-harakatni bildirib o'tgan zamonni, bo'lishlilikni, o'timsizlikni bildiradi, majhul nisbatda sifat kabi otga bog'lanib, uning belgisini bildiradi.

3 hil sifatdosh:

1. O'tgan zamon sifatdoshi - fe'l o'zak-negiziga -gan, -kan, -qan qo'shilishi bilan (aytgan, o'sgan, ekan, chiqqan) yasaladi.

2. Hozirgi zamon sifatdoshi: -a, -y bilan tugagan ravishdoshga — yotgan qo'shimchasini qo'shish bilan yasaladi: kuylay — yotgan — kuylayotgan

3. Kelasi zamon sifatdoshi:

1. O'zak-negizga -r, -ar qo'shish bilan yasaladi: qaynar buloq, oqar suv.

2. -a, -y bilan hosil bo'lgan ravishdoshga -digan qo'shimchasini qo'shish bilan yasaladi: beradigan bola, o'qiydigan kitob

Sifatdosh.

Sifatdosh — bu fe'llik va otlik, sifatlik belgilariga ega bo'lgan yasama formadir.

Sifatdosh — fe'l kabi vid kategoriyasiga (tugallanmagan va tugallangan), nisbatga (aniqlik va majhul) ega.

Sifatdosh — sifatlik belgisiga ega.

U rodga (m., j.), son (b., k.) kelishikka (vositali-vositasiz)(pyamoy va kosven.) ega. U gapda sifat bajaradigan sintaktik funktsiyani bajaradi (aniqlovchi funktsiyasini).

Sifatdosh ravishdosh xususiyatlarga ham ega bo'lib, u qo'shimcha ma'nolarni bildirishi va fe'l-kesimni to'ldirib, aniqlab kelishi mumkin.

Sifatdosh 2 ga bo'linadi: Sodda va murakkab

Sodda sifatdosh.

Sodda sifatdosh ham ikkiga bo'linadi:

Sodda notugal sifatdosh, Sodda tugal sifatdosh.

Sodda notugal sifatdosh: fe'l o'zak-negiziga «ta».

Sodda tugal sifatdosh: «a - ya» qo'shish bilan yasaladi.

Sodda sifatdosh odatda alohida ishlatilmaydi, ko'pincha fe'l formalarining bir komponenti bo'lib keladi.

Savollar:

1. Sifatdosh deb nimaga aytiladi?
2. Sifatdoshning belgilarini sanab bering?
3. Sifatdosh qanday turlarga bo'linadi?
4. Sodda sifatdosh nechaga bo'linadi?

Adabiyotlar:

1. Aulova R. A. «Uchebnik yazika hindi», qo'lyozma II - qism
2. Dimshits Z. M. idr. «Uchebnik yazika hindi» I - qism, M, 1980 y.
3. Dimshits Z. M. idr. «Uchebnik yazika hindi» II - qism, M, 1980 y.
4. Davidova A.A. Osnovnie sintaksicheskie funktsii slojnih prichastiy(Uch.zap. MGIMO Seriya filologiya vip 5. 1951)

12 - MA'RUZA

MURAKKAB SIFATDOSH

Ma'ruza rejasi:

1. Murakkab tugallanmagan sifatdoshning yasalishi.
2. Murakkab tugallangan sifatdoshning yasalishi.
3. Murakkab sifatdoshlarning sintaktik vazifalari.

Tayanch iboralar:

Murakkab sifatdosh, murakkab tugal sifatdosh, murakkab notugal sifatdosh.

Murakkab sifatdoshlar 2 komponentdan iborat bo'lib, oddiy sifatdoshlar kabi tugallanmagan va tugallanganga bo'linadi.

Murakkab notugal sifatdosh

Har qanday fe'lining sodda notugal sifatdoshiga «hona» fe'lining sodda tugal sifatdoshini qo'shish bilan yasaladi.

ana - ata hua - kelayotgan

likhna - likhta hua - yozayotgan

Murakkab tugal sifatdosh

Bu sifatdosh har qanday fe'lining sodda tugal sifatdoshiga «hona» fe'lining sodda tugal sifatdoshini qo'shish bilan yasaladi.

aya hua - kelgan

la^ota hua - qaytgan

Murakkab sifatdoshlarning sintaktik funktsiyalari.

Murakkab sifatdoshlar o'zida fe'l, sifat va ravishdosh belgilarini mujassamlashtirgani holda, gapda quyidagi vazifalarni bajaradi.

1. Aniqllovchi (atributiv, predikativ, yarimpredikativ)
2. Qo'shma ot - kesimning asosiy qismi vazifasida.
3. (payt, holat, sabab) hol vazifasida

Savollar:

1. Murakkab sifatdosh necha turga bo'linadi?
2. Murakkab notugal sifatdosh qanday yasaladi?
3. Murakkab tugal sifatdosh qanday yasaladi?

Adabiyotlar:

1. Aulova R. A. «Uchebnik yazika hindi», qo'lyozma II - qism
2. Dimshits Z. M. idr. «Uchebnik yazika hindi» I - qism, M, 1980 y.
3. Dimshits Z. M. idr. «Uchebnik yazika hindi» II - qism, M, 1980 y.
4. Davidova A.A. Osnovnie sintaksicheskie funktsii slojnih prichastiy (Uch.zap. MGIMO Seriya filologiya vip 5. 1951)

13 - MA'RUZA

MURAKKAB SIFATDOSH - ANIQLOVCHI VAZIFASIDA

Ma'ruza rejasi:

1. Aniqllovchi vazifasini bajaruvchi murakkab tugallanmagangan sifatdosh.
2. Aniqllovchi vazifasini bajaruvchi murakkab tugallangan sifatdosh.

Tayanch iboralar:

Murakkab notugal sifatdosh aniqlovchi vazifasida, murakkab tugal sifatdosh aniqlovchi vazifasida, aktiv ma'no, passiv ma'no.

Aniqlovchi vazifasida murakkab sifatdosh ikki hil keladi.

Sifatdosh sifat kabi predmetning belgisini ko'rsatadi, ammo bu belgi biror ish-harakat (yoki holat natijasida) vujudga kelgan belgidir.

saf pani - toza suv; behta hua pani - oqayotgan suv

burha admi -qari odam - ba^ytha hua admi - o'tirgan odam.

1. Har qanday fe'ldan yasalgan murakkab notugal sifatdosh aktiv ma'noga ega bo'ladi: u predmet, shahs tomonidan bajarilgan harakati yoki holat natijasida vujudga kelgan belgini ko'rsatadi:

1). Gate hue mazduron ki avaz a rahi thi

Kuylayoo'tgan ishchilarning ovozi eshitilayotgan edi.

2. Misollardan ko'rinadiki, aniqlovchi vazifasida M. N. S. aniqlanmish bilan rod, son va kelishikda moslashadi.

3. O'timli fe'llardan yasalgan tugallanmagan M. N. S. kamroq uchraydi. Ular o'rniga «vala» morfemasi bilan yasalgan sifatdosh ishlatiladi. M-n:

Roti pakanevala admi - non pishirayoo'tgan odam.

4. Aktiv ma'nodagi o'timsiz fe'llardan yasalgan murakkab tugal sifatdosh aktiv ma'noga ega.

Ana o'timsiz. - Usne aye hue asuon ko apne rumal se pochh liya - U oqqan (kelgan) ko'z yoshlarini ro'molcha bilan artidi.

Phatna o'timsiz. - Ghar me vahi sundar larki uske phate hue kot ko si rahi thi.

Ba^ythna o'timsiz. - Kar me ba^ythi hui a^orat ka chehra pila tha.

5. Passiv ma'nodagi o'timsiz fe'ldan yasalgan sifatdosh passiv ma'noga ega bo'ladi.

Lipatna o'-siz. - Un ke hath me kag'az me lipati hui kuchh chiz thi.

Bandhna o'-siz. - Karima ne kalai par bandhi hui sone ki ghari me vaqt dekha.

6. O'timli fe'llardan yasalgan M. T. S. passiv ma'noga ega.

1) Usne likhi hui chitthi ko nahi bhej diya he.

6 a. Bu sifatdosh boshqa biror predmet yoki shahs tomonidan bajarilgan ish-harakat natijasida paydo bo'lgan belgini bildiradi.

Agar ish-harakat bajaruvchisi (sub'ekt) ma'lum bo'lsa, u «ka» poslelogi bilan keladi (agar ot bo'lsa) yoki egalik olmoshi bilan ifodalanadi.

Jab vo snan kar rahi thi, to Dushyant ki di hui anguthi pani me gir pari.

7. Ba'zan o'timli fe'ldan yasalgan M. T. S. aktiv ma'noga ega bo'ladi. Bu holda u aniqlanmish bilan moslashmay, m.r. ko'plikda keladi.

Bag' me bare sundar vastr pehne hue ek larki dikhai di.

8. M.S.ning ikkinchi komponenti tushirib qoldirilishi mumkin.

Kuchh der bad usne per ke niche ba^ythe ek burhe ko dekha.

9. IOqoridagi misollarda aniqlovchi aniqlanmishdan avval keldi, aniqlovchi aniqlanmishdan keyin ham kelishi mumkin :

Mehel manushyon ka banaya nahi malum hota tha.

Savollar:

1. Murakkab sifatdosh aniqlovchi vazifasida kelganida necha hil bo'ladi?

2. Murakkab tugal sifatdoshning aktiv va passiv ma'nolarini izohlang?

Adabiyotlar:

1. Aulova R. A. «Uchebnik yazika hindi», qo'lyozma II - qism

2. Dimshits Z. M. idr. «Uchebnik yazika hindi» I - qism, M, 1980 y.

3. Dimshits Z. M. idr. «Uchebnik yazika hindi» II - qism, M, 1980 y.
4. Davidova A.A. Osnovnie sintaksicheskie funktsii slojnih prichastiy (Uch.zap. MGIMO Seriya filologiya vip 5. 1951)

14 - MA'RUZA

MAJHUL SIFATDOSH

Ma'ruza rejası:

1. Majhul sifatdoshning yasalishi.
2. Majhul sifatdoshning faqat o'timli fe'ldan yasalishi.

Tayanch iboralar:

Majhul sifatdosh, «jana» fe'li, qo'shma ot kesim, komponent.

M. S. o'timli fe'lining sodda tugal sifatdoshiga «jana» fe'lining sodda tugal sifatdoshini qo'shish bilan yasaladi.

kiya gaya - qilingan

Bu sifatdosh gapda faqat aniqlovchi vazifasini bajaradi.

Do din pehle diya gaya tar abhi tak nahin pahuncha tha.

Aniqlovchi aniqlanmish bilan rod, son, kelishikda moslashadi.

Qo'shma ot kesim

Q. ot-kesim - 2 komponentdan: ot, sifat, son, olmosh, ravishdosh, sifatdosh va bog'lovchi fe'llardan iborat bo'ladi. O'zbek tilidagi kabi hindiy tilida ot-qism kesimning leksik ma'nosini, bog'lovchi fe'l grammatik, ya'ni zamon, shahs, son, maylni ko'rsatadi.

Ot qismi turli hil so'z turkumlari bilan ifodalanadi:

1) ot bilan:

Me daktar hu.

Uzbekistan ki rajdhani Tashqand he

2) Sifat bilan:

Ye pustak dilchasp nahi he

3) Olmosh bilan:

Ye kapi meri he.

4) Ot-qismi son, ravish, infinitiv «vala» bilan yasalgan sifatdosh, M.S. bilan ifodalanishi mumkin.

Savollar

1. Majhul sifatdosh qanday yasaladi?
2. Qo'shma ot kesim qanday komponentlardan iborat bo'ladi?

Adabiyotlar:

1. Aulova R. A. «Uchebnik yazika hindi», qo'lyozma II - qism

2. Dimshits Z. M. idr. «Uchebnik yazika hindi» II - qism, M, 1980 y.

15 - MA'RUZA

MURAKKAB SIFATDOSH - QO'SHMA OT KESIMNING OT QISMI VAZIFASIDA

Ma'ruza rejasi:

1. Qo'shma ot - kesimning yasalihi.
2. Murakkab tugallangan sifatdoshning ot - kesimning ot qismi vazifasida kelishi.
3. Əga - kesim moslashuvi.

Tayanch iboralar:

Qo'shma ot-kesim, ot qism, ega-kesim moslashuvi, o'timli, o'timsiz, neytral shakl.

M. T. S faqat bu funktsiyada kelishi mumkin.

1. Asosiy qismi M.S. bilan ifodalangan ot-kesim eganing holatini bildiradi.

Me ba^ytha hua hu.

Vo leta hua he.

Bog'lovchi fe'l zamon son, rod, shahs, maylni ko'rsatadi.

Kesimning ega bilan moslashuvi

Kesim ega bilan fe'lining o'timli yoki o'timsizligiga qarab turlicha moslashadi.

1) Agar M.S. aktiv ma'nodagi o'timsiz fe'ldan hosil bo'lgan bo'lsa ega bilan moslashadi.

Jana o'-siz. - Mere pita kisi krishi ko milne ke liye bahr gaye hue he.

Ba^ythna - Sarla apne mata-pita ke pas ba^ythi hui ti.

2) Agar M.S. passiv ma'nodagi o'timsiz fe'l bilan ifodalangan bo'lsa, kesim passiv ma'noga ega bo'ladi.

Bichhna - farsh par qalin bichha hua tha.

3) Agar M.S. «Banna» fe'lidan yasalgan bo'lsa, predmet yasalgan materialning nomini bildiradigan so'zlar «ka» bilan keladi.

Badshah ka taht panne ka bana hua tha.

4) Agar M.S. o'timli fe'ldan yasalgan bo'lsa, ish-harakat bajaruvchisi bo'lmasa kesim ega bilan moslashadi va passiv ma'noga ega bo'ladi.

Likhna o'. - Is kimti kitab me duniya bhar ki bimariyon ke ilaj likhe hue the.

5) Agar ish-harakat belgisi ma'lum bo'lsa M.S. neytral shakl (m.r.) ga ega bo'ladi. Bog'lovchi fe'l shahs, son, rod, zamon, maylni ko'rsatadi. Kesim aktiv ma'noga ega bo'ladi, u eganing holatini ko'rsatadi.

Surdas dande ko mazbut pakre hue tha.

6) Ba'zan 2 - komponent tushirilib qolishi mumkin.

Ək chamar ka larka sunduk liye tha.

Savollar:

1. Qo'shma-ot kesim qanday yasaladi?
2. Kesimning ega bilan moslashuvi qanday bo'ladi?

Adabiyotlar:

1. Aulova R. A. «Uchebnik yazika hindi», qo'lyozma II - qism
2. Dimshits Z. M. idr. «Uchebnik yazika hindi» I - qism, M, 1980 y.

3. Dimshits Z. M. idr. «Uchebnik yazika hindi» II - qism, M, 1980 y.

4. Davidova A.A. Osnovnie sintaksicheskie funktsii slojnih prichastiy (Uch.zap. MGIMO Seriya filologiya vip 5. 1951)

16 - MA'RUZA

SHART MAYLI

Ma'ruza rejasi:

1. SHart maylining turlari.
2. SHart maylining sodda shakli.
3. SHart maylining sodda shaklini qo'llanilishi.
4. SHart maylining sodda shaklining sodda notugal sifatdosh shakli bilan mos tushishi.
5. SHart maylining sodda shaklining inkor shakli.

Tayanch iboralar:

SHart mayli, shart maylining sodda shakli, «ta» qo'shimchasi, «nahi to», «varna», «shayad», «kash», «kash ki», «na» inkor ioklamasi.

SHart maylidagi fe'llar biror ish-harakatning bajarilishi uchun undan oldin bajarilishi shart bo'lgan ish-harakatni, biror ish-harakatning bajarilish bajarilmasligi haqidagi istak, maslahat, faraz kabilarni anglatadi.

Fe'l o'zagidagi «sa» qo'shish bilan yasaladi.

kel - sam	kelsak
kel - sang	kelsangiz
kelsa	kelsa (lar)

SHart mayli kerakli shart - sharoitning yo'qligi tufayli amalga oshmaydigan ish-harakatni bildiradi.

4 shakli bor:

- 1) Oddiy
- 2) Murakkab tugallanmagan
- 3) Murakkab tugallangan
- 4) Protsessiv (davomiy)

SHart maylining sodda shakli

Fe'l o'zagiga «ta» qo'shimchasini qo'shish bilan yasaladi. Ya'ni shaklan sodda notugal sifatdoshga teng bo'ladi. Fe'l jins va sonda o'zgaradi shahs esa kishilik olmoshini qo'shish bilan aniqlanadi:

Muzakkar

Birlik	Ko'plik
I Me ata	I Ham ata
II Tu ata	II Tum ate
	Ap ate
III Ye, vo ata	III Ye, ve ate

Muannas

Birlik	Ko'plik
I Me ati	I Ham atin
II Tu ati	II Tum atin
	Ap atin
III Ye, vo ati	III Ye, ve atin

SHart maylining sodda shakli shartlashilgan, amalga oshmaydigan ish-harakatni anglatadi:

1. Agar vo samay par ata to me jati

SHart maylining sodda shakli ish-harakatni amalga oshishi mumkin emasligini anglatib, bunday jumalalarda «nahi to», «varna» (bo'lmasa, yo'qsa) kabilar ishlatiladi.

Mujhe pehle na malum tha, nahi to aj Indu ko avashya bula bhejta

Bunday jumalalarda odatda ish-harakat o'tgan yoki kelasi zamonga tegishli bo'ladi. Ish-harakat kelgusida bajariladigan bo'lsa, u holda fe'l - kesim kelasi zamon habar mayli orqali ifodalanadi.

Ise shighr nikalo, nahi to sab kuchh barbad kar dega

b) Qorasizlik, iloji yo'qlik odatda ritorik savol orqali ifodalanadi, ish-harakat o'tgan zamonga tegishli bo'ladi.

Tahirali ko dukh to bahut hua, par karte kya ?

v) O'tgan zamonda ma'lum bir shart-sharoitda bo'lishi mumkin bo'lgan ish-harakatga nisbatan tahminni bildiradi. Bunday jumalalarda «shayad» - (ehtimol, balki) ravishi uchraydi.

Yahan shayad das-pandrah sal bhi ji jaun, vaha bekar rehkar do hi sal me khatm ho jata

g) Noto'g'ri, noo'rin ish-harakatga nisbatan tanbeh, qoralash, norozilik kabilarni ifodalaydi.

Ma boli - larke ne do baton puchh li, to ka'n-sa andhar ho gaya. Javab deti a'or chali jati

d) Bu shakl so'zlovchi nuqtai nazaridan amalga oshmaydigan kuchli istakni ifodalashi mumkin.

Bunday jumalarning boshida «kash», «kash ki» roklamasi kelishi mumkin.

Manmohan bol utha, kash ki har ek admi a'sa hi ban sakta

SHart maylining sodda shakli o'tgan hozirgi va kelasi zamonga tegishli ish-harakatni ifodalaydi.

1. Aj teri mata hoti to use kitna anand hota (H.z)

2. Itni si bat par usne mujh par kharaun phenk mari. Yadi hath se na rok leti to sir phat jata. (O'.z)

Inkor shakli «na» roklamasi yordamida yasaladi.

Me keh sakti hun ki un ke anurog ke bag'a'r Vinay ko kabhi itni saphalta na prapt hoti

Savollar:

1. SHart mayli nimani anglatadi?
2. SHart maylining necha hil shakllari bor?
3. SHart maylining sodda shakli qanday yasaladi?
4. SHart maylining sodda shakli qanday qo'llaniladi?

Adabiyotlar:

1. Aulova R. A. «Uchebnik yazika hindi», qo'lyozma II - qism
2. Dimshits Z. M. idr. «Uchebnik yazika hindi» II - qism, M, 1980 y.
3. Liperovskiy V.P. «Glagol v yazike hindi» M., 1984g.

17 - MA'RUZA

SHART MAYLI SODDA

SHAKLINING MAJHUL

NISBATI

Ma'ruza rejasi:

1. SHart maylining sodda shaklining majhul nisbatini yasalishi.
2. Moslashuv (kesim, vositasiz to'ldiruvchi).

Tayanch iboralar:

SHart mayli sodda shaklining majhul nisbati, analitik usul, «jana» fe'li.

Bu shakl analitik usul bilan: asosiy fe'lining sodda tugal sifatdoshiga «jana» fe'lining shart maylining sodda shaklini qo'shish bilan yasaladi. Sifatdosh rod va sonda «jana» rod, son, maylda o'zgaradi.

Agar chitthi likhi jati to me usko bhejta.

Savollar:

1. SHart mayli sodda shaklining majhul nisbati qanday yasaladi?

Adabiyotlar:

1. Aulova R. A. «Uchebnik yazika hindi», qo'lyozma II - qism
2. Dimshits Z. M. idr. «Uchebnik yazika hindi» I - qism, M, 1980 y.
3. Dimshits Z. M. idr. «Uchebnik yazika hindi» II - qism, M, 1980 y.
4. Davidova A.A. Osnovnie sintaksicheskie funktsii slojnih prichastiy(Uch.zap. MGIMO Seriya filologiya vip 5. 1951)

18 - MA'RUZA

SHART ERGASH GAPLI ERGASHGAN QO'SHMA GAPLAR

Ma'ruza rejası:

1. Real tipdagi shart ergash gaplar.
2. Noreal tipdagi shart ergash gaplar.
3. Tahmin tipdagi shart ergash gaplar.

Tayanch iboralar:

shart ergash gap, ergashgan qo'shma gap, aniq(real) tur, noaniq(noreal) tur, tahmin tur.

SHart ergash gaplar «kis shart par?» surog'iga javob bo'lib, «yadi, agar» bog'lovchilari bilan, ba'zan «jab» («agar» ma'nosida) bilan, bosh gap «to» ioklamasi bilan boshlanadi.

SHart ergash gaplar 3 turga bo'linadi:

- a) aniq
- b) tahmin
- v) noaniq

Real turdagi shart ergash gap. SHunday shartni ko'rsatadiki, bu shart amalga oshsa , bosh gapning ish-harakat aniq amalga oshadi.

Bu turdagi gaplarda ergash va bosh gaplarning kesimlari habar maylida ifodalanadi.

1. Agar Jivanram ke sath jana chahti ho to kal mere sath Karachi chalna hoga.

Bosh gapning kesimi buyruq maylida ham kelishi mumkin.

Agar mujh par vishvas he, to kar lo, nahi he, to na karo

Bosh va ergash gaplarning ish-harakatlari kelasi zamonga tegishli bo'lsa, u holda: a) ikkala kesim kelasi zamon habar maylida ifodalanadi.

Yadi tum sahayata nahi karegi to ye per par charh nahi sakega

b) Ergash gapning kesimi o'tgan tugal zamonda, bosh gap kesimi kelasi zamonda ifodalanadi.

Agar Jivanram ko kuchh ho gaya me zinda na rahungi

Tahmin turdagi shart ergash gaplarda ikkala qismdan kesimlar yoki istak - habar mayli bilan ifodalanadi.

1. Agar likh du, me ne tumhara patr parha hi nahi, to unhe kitna dukh hoga

Noaniq turdagi shart ergash gaplarda bosh va ergash gap kesimlari shart maylining sodda shakli bilan ifodalanadi.

Agar vo mujhe a^ysa patr likhte to mujhe kitna bura malum hota.

Bu turdagi shart ergash gaplarda ish-harakat hozirgi, o'tgan, kelasi zamonlardan biriga tegishili bo'lishi mumkin.

1. Agar pehle kehte to mujhe zara bhi apati na hoti.

2. Agar vo ab bhi jakar mera hath pakar lete to mera krodh ek kshan me pani - pani ho jata.

Savollar:

1. SHart ergash gaplarning necha turga bo'linadi?

2. SHart ergash gaplarning har bir turini sharhlang.

Adabiyotlar:

1. Aulova R. A. «Uchebnik yazika hindi», qo'lyozma II - qism

2. Dimshits Z. M. idr. «Uchebnik yazika hindi» I - qism, M, 1980 y.

3. Dimshits Z. M. idr. «Uchebnik yazika hindi» II - qism, M, 1980 y.

19 - MA'RUZA DAVOMLI TUS

Ma'ruza rejasi:

1. Davomli tusning yasalishi.

2. Davomli tusning ish-harakat anglatishi.

3. «Rehna» yasovchi fe'lining mayl, zamon, rod, son, shahsda o'zgarishi.

4. Davomli tusning o'tgan tugal zamonda qo'llanilishi.

5. Davomli tusning hozirgi o'tgan tugal zamonda, kelasi zamonda qo'llanilishi.

6. Davomli tusning mayl (istak)da qo'llanishilishi.

Tayanch iboralar:

davomli tus, analitik yo'l, «rehna» yasovchi fe'li.

Davomli tus analitik yo'l bilan: sodda notugal sifatdosh va «rehna» yordamchi fe'li birikmasidan yasaladi.

parhte rehna likhte rehna

Sodda notugal sifatdosh rod va sonda o'zgaradi, «rehna» esa mayl, zamon, rod, son va shahsni ko'rsatadi.

Davomli tus (fe'l) ish-harakatning so'zlashayotgan paytdan avval boshlanib, davom etadigan, davom etgan va etajak ish-harakatni ifodalaydi.

Vo din bhar kam karta raha

Davomli tus hamma mayllarda, ko'proq habar maylida uchraydi. Xabar maylida ko'proq o'tgan tugal zamonda uchraydi.

Davomli tus o'tgan zamonda bir marta bo'lgan ish-harakatning davomliligini ko'rsatadi.

Ko'pincha «din bhar, sara din, rat bhar, sari rat, thori der tak, kuchh der tak, der tak» kabi ravishlar ishlatiladi.

Kuchh der tak idhar-udhar ki batchit hoti
rahi, phir dono vida hue.

Hozirgi tugallanmagan zamon o'tgan tugallanmagan va kelasi zamonlarda davomli tus vaqt jihatidan cheklangan davomli ish-harakatni ifodalaydi va «har samay, har vaqt, sada, hamesha, sadeyv, barabar» kabi ravishlar ishlatiladi.

Davomli tus istak maylining asosan sodda shaklida qo'llanilishi mumkin.

1. Unka kartavya he ki samay-samay par un se milte rahe

Savollar:

1. Fe'ning davomli tusi qanday yasaladi?
2. Davomli tus qanday ish-harakatharakatni ifodalaydi?
3. Davomli tusning qo'llanilishini ayting.

Adabiyotlar:

1. Aulova R. A. «Uchebnik yazika hindi», qo'lyozma II - qism
2. Dimshits Z. M. idr. «Uchebnik yazika hindi» I - qism, M, 1980 y.
3. Dimshits Z. M. idr. «Uchebnik yazika hindi» II - qism, M, 1980 y.

20 - MA'RUZA

DAVOMLI HOLATNING

IFODALANISHI

Ma'ruza rejasi:

1. Davomli holatni ifodalovchi fe'l shakllarining yasalishi.
2. Davomli holatni ifodalovchi fe'llarning o'tgan tugal zamonda qo'llanilishi.
3. Davomli holatni ifodalovchi fe'llarning o'tgan notugal, hozirgi notugal, kelasi zamonlarda ishlatilishi.

Tayanch iboralar:

Davomli holat, sodda tugal sifatdosh, «rehna» fe'li, o'tgan tugal zamon, uzoq davomiy holat.

Fe'l nafaqat ish-harakatni, balki holatni ham ifodalaydi. Biror bir holatning davomliligi o'timsiz fe'lning sodda tugal sifatdoshi va «rehna» fe'li bilan yasaladi.

I. Kuchh kshan tak vo chupchap leti rahi

II. Me thori der tak chup ba^ytha raha

Davomli holatni ifodalovchi fe'llar ko'proq o'tgan tugal zamonda uchraydi va vaqt jihatidan chegaralangan uzoq davomiy holatni ifodalaydi.

Abhivadan karke dono ba^yth gaye a^or thori der tak dono ma^on ba^ythe rahe

Davomli holatni ifodalovchi fe'llar H.T., O'.T va kelasi zamonlarda sub'ekt yoki ob'ektning shunday holatda bo'lganini, bo'lishini ularga hosligini ko'rsatadi.

Ankhen har samay ansuon se bhari rehti hen.

Savollar:

1. Davomiy holat qanday ifodalanadi?

Adabiyotlar:

1. Aulova R. A. «Uchebnik yazika hindi», qo'lyozma II - qism
2. Dimshits Z. M. idr. «Uchebnik yazika hindi» I - qism, M, 1980 y.

21 - MA'RUZA**SABAB ERGASH GAPLI ERGASHGAN****QO'SHMA GAP*****Ma'ruza rejasi:***

1. Sabab ergash gaplarning yasalishi.
2. «Kyonki» bog'lovchili sabab ergash gaplarning hususiyati.
3. «Chunki» bog'lovchili sabab ergash gaplarning hususiyati.
4. «Is liye ki» bog'lovchili sabab ergash gaplarning hususiyati.

Tayanch iboralar:**Sabab ergash gap, «kyonki» bog'lovchisi, «chunki» bog'lovchisi, «il liye ki» bog'lovchisi.**

Sabab ergash gap «kyon, kis liye» so'rog'lariga javob bo'ladi va bosh gapning ish-harakatining sababini ko'rsatib keladi.

Sabab ergash gap bosh gapga «kyonki, chunki, is liye ki (shuning uchun)» bog'lovchilari bilan birikadi.

«Kyonki» bog'lovchili sabab ergash gap bosh gapdan so'ng keladi.

Tum hanste ho kyonki tum meri baton par vishvas nahi karte

«Chunki» bog'lovchili sabab ergash gap doim bosh gapdan avval keladi.

Jangal chunki bahut ghana tha a^or sham ka andhera barh raha tha is liye ghora rasta bhul gaya

«Chunki» bog'lovchisi bosh gapda ko'pincha «is liye»(shuning uchun) ravishiga mos keladi.

Chunki ve ashakt he apni raksha ap nahi kar sakti, is liye a^yse kamon me zarurat se zyada tatpar ho jati he

«Is liye ki» bog'lovchili sabab ergash gap ham bosh gapdan so'ng keladi va u 2ga bo'linadi. «is liye» bosh gapda, «ki» ergash gaplarda keladi.

Usne apne jivan ko nasht kar diya keval is liye ki vo tum se prem karta tha.

Savollar:

1. Sabab ergash gap qanday yasaladi?
2. Sabab ergash gap qaysi bog'lovchilar bilan ishlatiladi?

Adabiyotlar:

1. Aulova R. A. «Uchebnik yazika hindi», qo'lyozma II - qism
2. Dimshits Z. M. idr. «Uchebnik yazika hindi» I - qism, M, 1980 y.

3. Dimshits Z. M. idr. «Uchebnik yazika hindi» II - qism, M, 1980 y.

22 - MA'RUZA

DAVOMLI - PROGRESSIV TUS

Ma'ruza rejasi:

1. Davomli- progressiv tusning yasalishi.
2. «Jana» yasovchi fe'lining o'zgarishi
3. Davomli-progressiv tusning ish-harakatni anglatishi.
4. Davomli-progressiv tusda ravishlarning ishlatilishi.
5. Davomli-progressiv tusning habar, buyruq, istak mayllarida ishlatilishi.
6. «Chale jana, ana, chale ana» yasovchi fe'llarining ishlatilishi.

Tayanch iboralar:

davomli - progressiv tus, «jana» yasovchi fe'li, uzluksiz progressiv ish - harakat, «din prati din» ravishi, «din par din» ravishi, «dhire-dhire»ravishi, «chale jana» fe'li, «chale ana» fe'li.

Davomli-progressiv tus analitik usul bilan : asosiy fe'lining sodda notugal sifatdoshi va «jana» yordamchi fe'lining qo'shilishidan yasaladi.

barhte jana parhte jana

Sodda notugal sifatdosh rod va sonda yordamchi fe'l «jana» mayl, zamon, shahslarda o'zgaradi.

Davomli-progressiv tus uzluksiz progressiv ish-harakatni ifodalaydi.

Meri ma ko ek samp ne kat liya, ma nili hoti ja rahi thi

Ish-harakatning kuchayishining yoki susayishining ortib borayotganini kursatish uchun quyidagi ravishlar «din prati din, din par din, dhire-dhire» ishlatiladi.

Dhire-dhire ghore ke qadam sust parte gaye

Davomli-progressiv tus yana uzluksiz davom etuvchi ish-harakatni ham bildiradi:

Itne din ho gaye a^or ye larai barabar chalti ja rahi he

Ko'pincha bunday hollarda «barabar, lagatar» ravishlari ishlatiladi.

Davomli progressiv tus habar buyruq, istak mayllarida uchraydi. Xabar maylida hamma fe'l zamonlarida hususan o'tgan tugallangan, hozirgi va o'tgan protsessiv zamonlarda ishlatiladi.

Ba'zan «jana» o'timsiz fe'llar bilan kelganda. «chale jana» fe'li bilan o'zgartirilib u yanada ish-harakat o'sishini ta'kidlab ko'rsatadi.

Kampani ke atyachar barhte hi chale jate the

Yana «ana» ko'makchi fe'li ham davomli progressiv tusda ishlatiladi. U avval o'tgan zamonda boshlangan va hozirgi zamon bilan bog'liqligini ta'kidlaydi.

Ye sab kam abhi tak a^orat karti ayi he

Bunday hollarda «sadiyon se», «sa'ykron salon se, adikal se» ravishlari ishlatiladi.

Manushya adikal se hi apne jivan ko sukhi banane ke liye prayatan karta aya he.

«Ana» fe'li o'rniga «chale ana» ham ishlatilishi mumkin.

Urdu ko mae apni zaban samajhta hu jise mae bachpan se bolta chala aya hu

Bu 4 ta fe'l ichida «jana» ko'proq qo'llaniladi.

Savollar:

1. Davomli progressiv tus qanday yasaladi?
2. Davomli progressiv tus qanday ish-harakatharakatlarni bildiradi?

Adabiyotlar:

1. Aulova R. A. «Uchebnik yazika hindi», qo'lyozma II - qism
2. Dimshits Z. M. idr. «Uchebnik yazika hindi» I - qism, M, 1980 y.
3. Dimshits Z. M. idr. «Uchebnik yazika hindi» II - qism, M, 1980 y.

23 - MA'RUZA

CHOG'ISHTIRMA ERGASH GAPLAR

Ma'ruza rejasi:

1. Chog'ishtirma ergash gaplarning yasalishi va bog'lovchilar.
2. Chog'ishtirma ergash gaplarning o'rni.

Tayanch iboralar:

Chog'ishtirma ergash gaplar, «jayse-jayse» bog'lovchisi, «jyon-jyon» bog'lovchisi, mazmun, sifat.

Bosh gapga qiyoslanadigan ergash gaplarga aytiladi. Ular «ja^yse - ja^yse, jyon - jyon» bog'lovchilari bilan bog'lanadi.

Jyon-jyon din barhta jata he, asman me surya ki sthiti badalti jati he

Ja^yse - ja^yse matdan ke din samip ate ja rahe he, us me jan sangh shivir me ghabrahat barhti ja rahi he

Bosh va ergash gap mazmun va sifat jihatidan qiyoslanishi mumkin.

Jyon - jyon aam chunav nikat ate ja rahe he log bhi us me apni vishesh ruchi dikh rahe he.

Chog'ishtirma ergash gap asosan bosh gapdan avval keladi.

Savollar:

1. Chog'ishtirma ergash gap deb qanday gapga aytiladi?
2. Chog'ishtirma ergash gap qay tarzda yasaladi?

Adabiyotlar:

1. Aulova R. A. «Uchebnik yazika hindi», qo'lyozma II - qism
2. Dimshits Z. M. idr. «Uchebnik yazika hindi» II - qism, M, 1980 y.

24 - MA'RUZA

TAKRORIY TUS

Ma'ruza rejasi:

1. Takroriy tusning yasalishi.
2. Sodda tugal sifatdosh shakli.
3. «Karna» yasovchi fe'lining o'zgarishi
4. Takroriy tusning ish-harakat anglatishi
5. Takroriy tusning o'tgan notugal, hozirgi notugal, kelasi zamonlarda qo'llanilishi.
6. Takroriy tusning mayllarda qo'llanilishi.

Tayanch iboralar:

Takroriy tus, sodda tugal sifatdosh, «karna» yasovchi fe'li, «prati din», «roz», «bar-bar» ravishlari.

Asosiy fe'lining sodda tugal sifatdoshi va «karna» yordamchi fe'lining qo'shilishidan yasaladi.

parha karna aya karna

Sodda tugal sifatdosh doim muzakkar jinsda, birlikda ya'ni o'zgarmaydi, yordamchi fe'l «karna» mayl, zamon, rod, son, shahslarni ko'rsatadi.

Takroriy tus odatda davomiy takrorlanib turuvchi ish - harakatni ifodalaydi.

Ve yahan aya karte he

Takroriy tus habar, buyruq, istak mayllarida, ko'proq habar maylida o'tgan tugal, hozirgi tugal, kelasi zamonlarda ishlatiladi.

Takroriy tus o'tgan tugal zamonda o'tgan zamondagi takroriy ish - harakatni ko'rsatsa, hozirgi tugal zamonda doimiy, takrorlanib turuvchi ish - harakatni anglatadi.

Ve Bhagvandas ki ma se milne aya karti thi

Takroriy tus kelasi zamonda takrorlanadigan ish - harakatni anglatadi.

Ab ye hathi roz yahan aya kareng, kyonki as pas a^or pani nahi he

Takroriy tusning buyruq mayli shakli ish - harakatni bir necha marta takror bajarishni iltimos qilishni yoki bukorishni ko'rsatadi.

Mujh ko kabhi kabhi telefon kar liya karo

Inkor shakli esa takroriy ish - harakatni taqiqlashni ifodalaydi.

Xuda ke liye mujh se a^ysi baten na kiya karo

Takroriy tus istak shakli takroriy ish - harakatning bajarilish ehtimolini, mumkinligini ko'rsatadi.

Ap yahan ek na^okar rakh le a^or Bhagvandas us na^okar ka kharcha de diya kare

«Jana» fe'li takroriy tusda «jaya» shakliga ega bo'ladi.

Me prayah ravivar ko apni sasural jaya karti thi

Roz vahan jaya karo

Takroriy tusda quyidagi ravishlar: «prati din, roz, bar-bar» ishlatiladi.

Savollar:

1. Takroriy tus qanday yasaladi?
2. Takroriy tus qanday ish - harakatlarni ifodalab keladi?

Adabiyotlar:

1. Aulova R. A. «Uchebnik yazika hindi», qo'lyozma II - qism
2. Dimshits Z. M. idr. «Uchebnik yazika hindi» I - qism, M, 1980 y.
3. Liperovskiy V.P. «Glagol v yazike hindi». M., 1984g.

25 - MA'RUZA

PAYT ERGASH GAPLI ERGASHAGAN QO'SHMA GAPLAR

Ma'ruza rejasi:

1. Payt ergash gapning yasalishi.
2. Bog'lovchilar.
3. Payt ergash gapning o'rni.

Tayanch iboralar:

Payt ergash gap, «jab se, jab, jab tak, ki, jyon hi» bog'lovchilari, fe'l zamonlari.

Payt ergash gaplar bosh gapning ish - harakatning boshlanish paytini ko'rsatib «kab, kab tak, kab se, kis samay se (tak)» so'roqlariga javob bo'ladi.

Payt ergash gaplar «jab, jab se, jab tak, ki, jyon hi» bog'lovchilar bilan bog'lanadi.

Payt ergash gaplar va B.G. ish - harakatlarni bir hil vaqtda bajarilishi mumkin. Bunday holda ular bir hil fe'l zamonlarda ishlatiladi.

Jab mae hal se bahr nikala ja raha tha, sab log

mujh par hans rahe the

Ikkala gapning ish - harakati qisman payt jihatdan mos tushishi mumkin. Qisman bir hil vaqtda bajarilishi turli zamonlarda ifodalanadi.

Ձk din Ramu jab Jamuna me kapre dho raha tha, ek magarmachchh ne us ki tanga khinch li

«Jab, jab tak, jab se, jyon hi, ja^yse hi» bog'lovchilarini payt ergash gaplar bosh gapdan avval keladi. Ba'zan aksincha bo'lishi mumkin:

Sanjh ho gayi thi, jab SHishupal Patilaputr pahunche

«Ki» bog'lovchili payt ergash gaplar doim bosh gapdan so'ng keladi.

Savollar:

1. Payt ergash gap bosh gapga qanday bog'lanadi?

Adabiyotlar:

1. Aulova R. A. «Uchebnik yazika hindi», qo'lyozma II - qism

2. Dimshits Z. M. idr. «Uchebnik yazika hindi» I - qism, M, 1980 y.

26 - MA'RUZA GUMON MAYLI

Ma'ruza rejasi:

1. Gumon maylining turlari.
2. Gumon maylining oddiy shakli.
3. Gumon maylining murakkab notugal shakli.
4. Gumon maylining murakkab tugal shakli.
5. Gumon maylining protsessiv shakli.

Tayanch iboralar:

Gumon mayli, gumon maylining sodda shakli, gumon maylining murakkab notugal shakli, gumon maylining murakkab tugal shakli, gumon maylining murakkab progressiv shakli, «hona» fe'li.

Gumon mayli tahmin, gumon kabi ma'nolarni bildiradi va 4ta shaklga ega:

1 ta sodda

3 ta murakkab — tugal, notugal, davomiy.

Gumon maylining sodda shakli

Bu shakl «hona» fe'lining kelasi zamonidagi shakli bilan mos tushadi, ammo tahmin mayldia modal ma'noga ega bo'ladi, ya'ni tahmin, ehtimollikni ifoda etadi.

1. Vahan ek larka ba^ytha tha. Char sal ka hoga — U erda bir bola o'tirar edi. 4 yoshlarda bo'lsa kerak.

Ish-harakat o'tgan yoki kelasi zamonga tegishli bo'lishi mumkin. Ehtimol, bo'lishi kerak, balki kabi so'zlar tarjimada ishlatilish mumkin.

«Hona» fe'li tahmin maylining sodda shaklida rod va sonda o'zgaradi, asosan 3 - shahsda o'zgaradi.

Us vaqt us ki umr panch sal ki hogi

Gumon maylining murakkab

tugallanmagan shakli

Bu analitik yo'l bilan: asosiy fe'lining notugal sifatdoshi va «hona» fe'lining gumon maylidagi sodda shaklining birikishidan yasaladi..

Sodda notugal sifatdosh rod va sonda o'zgaradi, yordamchi fe'l rod, son va shahsda o'zgaradi.

Muannas

Birlik	Ko'plik
I mae ati hongi	ham ati hongi
II tu ati hogi	tum ati hogi
	ap ati hongi
III ye, ve ati hogi	ye, ve ati hongi

Muzakkar

Birlik	Ko'plik
I mae ata honga	ham ate honge
II tu ata hoga	tum ate hoge
	ap ate honge
III ye, vo ata hoga	ye, ve ate honge

Gumon maylining notugal shakli hozirgi zamonda bajariladigan ish-harakatga nisbatan tahminni bildiradi.

1. Tum samajhte hoge, ve tumhare muhtaj he

Gumon maylining notugal shakli bilan ifodalangan ish-harakat kelasi zamonga tegishli bo'lishi mumkin:

Aj rat ko barish hoti hogi

Gumon maylining murakkab

tugal shakli

Bu shakl asosiy fe'ning sodda tugal sifatdoshiga «hona» fe'lining gumon maylidagi sodda shaklini qo'shishi bilan yasaladi. Agar asosiy fe'l o'timsiz bo'lsa, u holda sifatdosh rod va sonda, yordamchi fe'l rod, son, shahsda ega bilan moslashgan holda o'zgaradi.

Muzakkar

Birlik	Ko'plik
I mae aya honga	ham aye honge
II tu aya hoga	tum aye hoge
	ap aye honge
III ye, vo aya hoga	ye, vo aye honge

Muannas

Birlik	Ko'plik
I mae ayi hongi	ham ayi hongi

II tu ayi hogi tum ayi hogi
 ap ayi hong
III ye, vo ayi hogi ye, vo ayi hong

Asosiy fe'l o'timli bo'lsa, egadan so'ng «ne» keladi kesim neytral holatda keladi.

Ap ne parha hoga

Agar gapda «ko» poslelogli vositasiz to'ldiruvchi bo'lsa, kesim yana neytral holda keladi.

Ap ne is kahani ko parha hoga

Agar gapda vositasiz to'ldiruvchi (ko) siz bo'lsa, kesim u bilan moslashadi.

Ap ne ye pustak parhi hogi

Gumon maylining murakkab tugal shakli o'tgan zamonda bajarilgan ish-harakatga nisbatan tahminni, ehtimollikni ifodalaydi.

Tumhe to bari khushi hui hogi

Bu shakl bir marta bo'lgan tugallangan ish-harakatga nisbatan tahmin, gumonni ifodalaydi.

Usne jo kuchh kiya, apne bete ke liye kiya hoga

Gumon maylining murakkab tugal va murakkab notugal shakllarining inkor shakli «na» yordamida yasaladi.

Raja sahib na aya hoga, ye keval bahana he

Gumon maylining murakkab davomiy shakli

Asosiy fe'lining davomiy sifatdash va «hona» fe'lining g.m. sodda shaklidan yasaladi. Protsessiv sifatdash ega bilan rod, sonda moslashadi, yordamchi fe'l esa rod, son, shahsda moslashadi.

Muzakkar

I mae likh raha honga ham likh rahe honge
II tu likh raha hoga tum likh rahe hoge
 ap likh rahe honge
III ye, vo likh raha hoga ye, ve likh rahe honge

Muannas

I mae likh rahi houngi ham likh rahi hong
II tu likh rahi hogi tum likh rahi hogi
 ap likh rahi hong
III ye, vo likh rahi hogi ye, ve likh rahi hong

Gumon maylining murakkab davomiy shakli ma'lum bir paytda bajarilayotgan ish-harakatga nisbatan tahminni, ehtimollikni bildiradi.

Mujhe jana chahiye. Ma chinta kar rahi honge

Gumon maylining murakkab davomiy shakli ma'lum bir paytda bajarilayotgan ish-harakatga nisbatan tahminni ehtimollikni bildiradi.

Gumon maylida kelgan jumalalarda «kadachit, shayad» ehtimol, bo'lish kerak, balki kabi modal so'zlar ishtirok etishi mumkin.

SHayad mujhe lajjit karna chahte honge

Kadachit itne shudh hriday se usne kabhi prarthna na ki hogi

To'rt shakldan sodda va murakkab tugal shakllar ko'proq uchraydi.

Savollar:

- 1) Gumon maylining sodda shakli qanday yasaladi?
- 2) Gumon maylining murakkab notugal shakli qanday yasaladi?
- 3) Gumon maylining murakkab tugal shakli qanday yasaladi?
- 4) Gumon maylining progressiv shakli qanday yasaladi?

Adabiyotlar:

1. Aulova R. A. «Uchebnik yazika hindi», qo'lyozma II - qism
2. Dimshits Z. M. idr. «Uchebnik yazika hindi» II - qism, M, 1980 y.
3. Liperovskiy V.N. «Kategoriya nakloneniya v sovremennom literaturnom hindi». M. 1962.

27 - MA'RUZA

O'RIN ERGASH GAPLAR

Ma'ruza rejasi:

1. O'rin ergash gaplarning yasalishi.
2. Bog'lovchilar o'rni.
3. Bosh va ergash gaplarning o'rni.

Tayanch iboralar:

O'rin ergash gap, bosh gap, ergash gap, bog'lovchi

O'rin ergash gap bosh gapning ish-harakatining bajarilish o'rnini bildiradi.

O'rin ergash gap «kahan, kahan se» so'rog'iga javob bo'ladi va bosh gapga «jahan, jidhar» qaerda, qaerga kabi bog'lovchilar bilan bog'lanadi.

Pratyek vyakti ko vo sthan priy hota he jahan uska janm hua he
Ham udhar chalne lage jidhar ham tino milnevala the
O'rin ergash gap (asosan) bosh gapdan avval keladi:

Savollar:

1. O'rin ergash gap qanday yasaladi?

Adabiyotlar:

1. Aulova R. A. «Uchebnik yazika hindi», qo'lyozma II - qism
2. Dimshits Z. M. idr. «Uchebnik yazika hindi» II - qism, M, 1980 y.
3. Kamtaprasad Guru «Hindi vyakaran». Varanasi. 1982.

28 - MA'RUZA

FE'L O'ZAGI. (KAUZATIV)

ORTTIRMA FE'LLAR

Ma'ruza rejasi:

1. Tub va yasama fe'llar.
2. O'timli fe'llardan o'timli fe'l yasash.

Tayanch iboralar:

Tub o'zak, yasama o'zak, kauzativ o'zak, o'timli fe'l, o'timsiz fe'l, kauzativ fe'l

Fe'l o'zagi 2 ta tub va yasama o'zaklarga bo'linadi.

Tub o'zak boshqa biror o'zak yoki so'zdan yasaladi.

M-n: «kar, dekh, so» va h.z.

Yasama o'zak boshqa biror o'zakdan yoki so'zdan yasaladi.

«chalna» dan chalana

sunna — sunana

karna — karana

khatkhat — khatkhatana

rang — rangna

apna — apnanana

Yasama o'zaklarga kauzativ, ot tarkibli va (tovushga taqlid qilingan) taqlidiy fe'llar kiradi.

Kauzativ fe'llar

Ish - harakatni bajarishga undash, majbur qilish ma'nolarga ega bo'lgan fe'llar kauzativ fe'llar deyiladi.

Kauzativ fe'llar «a, va, la, lava» qo'shimchalari yordamida yasaladi.

Mae chitthi likh raha hu Mae chitthi likha raha hu

Men hat yozayapman Men hat yozdiryapman

Vo skul me parhta he Vo skul me parhata he

U maktabda o'qiydi U maktabda o'qitadi

(dars beradi)

«Likhna, parhna» fe'llarida ish - harakat o'z hohishiga ko'ra bajarilsa, «likhana, parhana» fe'llarida esa ish - harakatni bajarishga undash, zo'rlash ma'nolarini o'ziga oladi.

Kauzativ fe'l doim o'timli bo'ladi. Kesimli kauzativ fe'l bilan ifodalangan gapda ish - harakat sub'ekti - ega - ish - harakatni aniq bajaruvchi yoki ish - harakatga undovchi bo'ladi.

Kauzativ fe'l o'timsiz fe'ldan yasalgan bo'lsa, unda ish - harakat sub'ekti gapda ega vazifasini bajaradi.

Nayakram ne Surdas ko god me uthakar gaddi me ba^vtha diya

Kauzativ fe'l o'timli fe'ldan yasalgan bo'lsa, unda ish-harakat sub'ektili gapda vositali to'ldiruvchi vazifasida keladi. Ish-harakatga undovchi - ega vazifasini bajaradi. «Se» ko'makchisi (ba'zan «ke hath se, ke zariye») bilan kelgan ot yoki olmosh bilan ifodalangan ish-harakat sub'ekti o'z hohish va irodasiga ko'ra emas balki ish-harakatga undovchining undashi, (buyruq, iltimos, topshiriqqa ko'ra ish-harakatni bajaradi).

Menejar un se qag'zon par dasthat kara raha tha

Xaqiqiy ish-harakat bajaruvchi gapda ko'pincha tushirib qoldiriladi, fe'l esa kim tomonidan bajarilganini ko'rsatadi.

1. Me yahan kai bar aya a^or har bar pustaken kharidkar Bharatvarsh bhijvayi

Kauzativ fe'llarning

yasalishi.

Kauzativ fe'llar «ana, jana, hona, pana, sakna» fe'llaridan tashqari hamma o'timli va o'timsiz fe'llardan yasaladi.

Ularning 2 ta darajasi bor.

Birinchi daraja tub fe'l o'zagiga «a», ikkinchi daraja «va» qo'shimchasini qo'shish bilan yasaladi.

	Id.	IId.
sunna	sunana	sunvana
tinglamoq	gapirib bermiq	gapirishga
	(tinglashga majbur)	majbur
	qilmoq	qilmoq

parhna

uthna

parhana

uthana

parhvana

uthvana

Agar tub fe'lining o'zagida? «e» va «o» dan tashqari uzun unli tovush bo'lsa, «a» va «va» qo'shimchalarini qo'shish bilan ular qisqaga aylanadi.

jagna	jagana	jagvana
bhagna	bhagana	bhagvana

«e» va «o» tovushlari suffikslardan oldin «i» va «u»ga o'zgaradi.

letna	litana	litvana
bolna	bulana	bulvana

Qisqa unli tovush bo'lgan uch bo'g'indan iborat o'zak I darajada 2 chi bo'g'inda o'z unlisini yo'qotadi, 2 daraja yasalganda o'z holiga qaytadi.

samajhna	samajhana	samajhvana
pakarna	pakrana	pakarvana
sulajhna	sulajhana	suljhvana

Kauzativ fe'llarning I darajada ba'zi o'zaklar birinchi yoki ikkinchi unli cho'zish orqali, 2 - darajasi «va» qo'shimchasini qo'shish bilan yasaladi.

marna	maarna	marvana
nikalna	nikaalna	nikalvana
utarna	utaarna	utarvana

Bir bo'g'inli o'zakdan kauzativ fe'llarning I darajasi «la» qo'shish bilan, II darajasi «lva» qo'shish bilan yasaladi. Uzun unli «u» qisqaradi, yoki o'zgaradi:

«a—u» ga	«e—i»ga	
pina	pilana	pilvana
sina	silana	silvana
chhuna	chhulana	chhulvana
sona	sulana	sulvana

Ba'zi bir fe'llar qoidadan mustasnodir.

I daraja

bhigna	bhigana	bhigona
dubna	dubana	dubona
khana	khilana	

O'timsiz fe'llarning o'zagidan yasalgan kauzativ fe'llarning I darajasi o'timliga aylanadi.

chalna—chalana
uthna—uthana
urna—urana

O'zakdagi «t» ni «r» ga va unli tovushni cho'zib ba'zi o'timsiz fe'llardan o'timli fe'l yasash mumkin.

jutna	jorna
tutna	torna
phatna	pharna
chhutna	chhorna

Ba'zi o'timli fe'llar ma'nosida farqlanmaydigan 2ta darajaga ega.

dena	dilana	dilvana
dhona	dhulana	dhulvana

Ba'zi fe'llar 1 ta yasama o'zakka ega

gana—gavana

khona—khavana

lena—livana

«kehna» I darajada «kehlana» bo'lib, «atalmoq» o'timsiz fe'ldir.

«ba^ythna» ning variantlari «ba^ythana, ba^ythalna, ba^ythvana, bithana, bithlana»

Kauzativ fe'llar shahsiy va shahssiz shakllarda aniqlik va majhul nisbatlarda, hamma zamon va mayllarda uchraydi.

Savollar:

1. Fe'l o'zagi necha turga bo'linadi?
2. Kauzativ fe'llar qanday yasaladi?

Adabiyotlar;

1. Aulova R. A. «Uchebnik yazika hindi», qo'lyozma II - qism
2. Kamtaprasad Guru «Hindi vyakaran». Varanasi. 1982.
3. Xindi-russkiy slovarъ M. 1957